



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> February, 2025

## **IMOM BUXORIY HADISLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI**

Qosimov Ubaydulloh Avazbek o'g'li

Osiyo Xalqaro Universiteti magistri

[ubaydulloandijon@gmail.com](mailto:ubaydulloandijon@gmail.com)

+998911682202

Islom dinida yoshlarning ilm olishiga juda katta e'tibor berilgan. Yoshlarni ilmga yo'naltirish islom dinining talabi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Hatto ilm olish islomda ibodat darajasiga ko'tarilgan. Bu hususda aynan Qur'oni karim oyatlari va Nabiy sollallohu alayhi vasallam hadislarida ham o'z ifodasini topgan. Shuningdek, Qur'oni karimdan keyin eng ishinchli, sahih hadislar jamlanmasi muallifi Imom Buxoriyning ishonchli kitob, ya'ni "Al-jome as-sahih" kitobida ham alohida ilm olish haqida ko'plab hadislarni ko'rishimiz mumkin. Shu sababli ham bugungi yoshlarga ilm olish borasida hadislardan namuna keltirsak bo'ladi. Imom Buxoriy kitoblarining barchasida insonni ijobiy hislatlar egasi bo'lishga chorlovchi ma'nolarni ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda, yana bir kitobiga tuxtaldik.

"Al-Adab al-mufrad" asarida ham inson axloqi odobi, ma'naviy kamolotiga doir hadislarni turli mavzular bo'yicha tasnif qilgan va izohlar bergen. Asarning ilk boblarida ota – ona oldida farzandlik burchlari, ota – onani rozi qilish, ularning haqini ado qilish, ota – ona amriga itoat qilish, ularga yaxshilik qilish, ularni dilini og'ritmaslik, qarindosh – urug'larga mehr – shavqat, rahmdillik, yosh bolalarga, ayollarga mehr – muruvvatli bo'lish, bolalar va kattalar arazlashib, urishib qolganda yarashtirib qo'yish, imorat qurishda va boshqa ishlarda kamtarlik bilan ish tutish, takabburlik va so'kinishning yomonligi, jabr – zulmning yomonligi, rostgo'ylik va yolg'onlik, halol va harom, savob va gunoh ishlar kabi inson ma'naviy hayotiga doir muhim muammolar to'g'risida fikr yuritilgan.

Buxoriy yaratgan „Kitob al-favoid“ („Foydali ashyolar haqida kitob“), „Al-Jome' al-kabiyr“ („Katta tayanch“), „Xalq af'ol alibod“, („Alloh bandalari ishlarining tabiat“), „Al-Musnad al-kabiyr“ („Katta tayanch“), „At-tafsir al-kabiyr“ („Katta tafsir“), „Kitob al-xiba“ („Xayr-ehson haqida kitob“) va boshqa asarlarning ba'zilari bizgacha yetib kelmagan, ba'zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar bor.



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> February, 2025

Bugungi kunda xalqimiz o'z oldiga qo'ygan buyuk maqsadlarga, ezgu niyatlarga erishish, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlar rejalarining samarasi, avvalambor yuqori malakali, yuksak tafakkurga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash, tarbiyalash taraqqiyotimizning asosiy sharti hisoblanadi. Davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot startegiyasi" to'g'risidagi farmonida belgilangan (7 ta ustivor yo'naliш), "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish" yo'naliшhida, "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish" maqsadga muvofiqligi, dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari va ilmiy tadqiqot markazlari, universitetlar bilan hamkorlikda, buyuk ajdodlarimizning boy – ilmiy – ma'naviy merosini keng o'rganish hamda targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilayotganligi diqqatga sazovordir. Bunda asosan, Imom Buxoriy ta'limotlarni o'rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy barkamol jihatdan kamolotga erishishlari, egallagan bilim va malakalarni o'z faoliyatlarida, jamiyatimiz taraqqiyoti yo'lida to'la namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladigan darajada tarbiyalash muhim vazifalardandir.

Alloma asarlarida axloqiy tarbiyaga oid ta'limotlarining markazida komillik, insonlarning o'zaro mehribon bo'lishlari, bir – birlariga har doim yordam berish, ahil – totuv yashash kerakligi, halol mehnat qilish, yaxshilik, eзgulik g'oyalari yotadi. Imom Buxoriy qalbi pok, iymonli, atrofdagilariga umuman zarar yetkazmaydigan, odamlarga faqat yaxshilik qiladigan va yordam beradigan insonlarnigina axloqan barkamol deb hisoblaydi. Imom Buxoriy hadislaridan: "Insonlarga yomonlik qilishdan uzoq tur. Zero bu o'zingga sadaqadir". Ya'ni, boshqalarga foydasi tegadigan odam eng yaxshi insondir.

Shu sababli tinch va osuda hayotimizga, sihat-salomatlilikda yashayotganimizga shukur qilishimiz zarur. Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlod ongida tinchlikni asrash va uni qadrlash haqidagi tushunchani shakllantirish katta ahamiyatga egadir.

Bu ezgu vazifani ijobjiy hal etishda xalqimiz ma'naviy merosining ahamiyati kattadir. Shu sababli ma'naviy merosimizni tiklash, o'rganish va hayotga tatbiq



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> February, 2025

etish, jahon andozalari darajasiga ko‘tarishga alohida e’tibor qaratish darkordir. Imam al-Buxoriy hadislarining jahonshumul ahamiyati insoniylik, insonparvarlik Vatanga muhabbat haqida tarbiya berishi bilan yosh avlodda e兹gulik va go‘zallik tuyg‘ularini mujassamlashtiradi. Ilm-fanda "Hadis ilmining amiri" deb bir ovozdan tan olingan Imam Ismoil al Buxoriy hadislari mehr-oqibat, sahiylik, ota-onalar va kattalarga omad, yetim-yesirlarga muruvvat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollik, turli xalqlarning, tinch-totuv yashashlari kabi insoniy fazilatlari barkamol avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asar hisoblanadi Yoshchlarni shu asarlar asosida tarbiyalash ularning kelajakda yetuk inson bo‘lib shakllanishiga zamin bo‘la oladi deya ayta olishimiz mumkin.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Buyuk siymolar, allomalar. 1 – kitob, - Toshkent, Fan, 1995
2. 1001 mavzuda 1001 hadis (Sharh va ilovalari bilan) – O’zbekiston, NMIU, 2020 yil
3. Oltin Silsila: 1 –juz.Sahihul Buxoriy – Toshkent, “Hilol - nashr”, 2016
4. 1001 mavzuda 1001 hadis (Sharh va ilovalari bilan) – O’zbekiston, NMIU, 2020 yil
5. [https://lex.uz/uz/docs/5841063//O’z.Res.Prezidentining Farmoni “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot startegiyasi” to’g’risida.PF](https://lex.uz/uz/docs/5841063//O’z.Res.Prezidentining_Farmoni_“2022-2026_yillarga_mo’ljallangan_Yangi_O’zbekistonning_taraqqiyot_startegiyasi”_to’g’risida.PF) – 60 son, 28.01.2022 yil.